

NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*





Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar - iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **23,1** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **7,3** mingtaga yoki **24,2** %ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,7** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar - iyun oylarida **2,5** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,7** %ga kam demakdir.

2023- yilning yanvar - iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha yanvar - iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yilning yanvar - iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **23 058** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 464** tani tashkil etdi


2023- yilning yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **7 101** tani yoki jamiga nisbatan **30,8 %** ni tashkil etdi.

yanvar - iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida yanvar - iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2023- yilning yanvar - iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **9,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **3,1** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **12,5** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **11,0** birlik, Chortoq tumanida **10,6** birlik, Chust tumanida **10,6** birlik, Namangan shahrida **10,4** birlik, Pop tumanida **9,9** birlikni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

| | |
|---------------|------|
| Mingbuloq | 12,5 |
| Uchqo'rg'on | 11,0 |
| Chust | 10,6 |
| Chortoq | 10,6 |
| Namangan sh. | 10,4 |
| Pop | 9,9 |
| Namangan | 9,3 |
| To'raqo'rg'on | 8,7 |
| Norin | 8,6 |
| Yangiqo'rg'on | 8,1 |
| Kosonsoy | 7,9 |
| Uychi | 7,6 |

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori
ko'rsatkich

Mingbuloq tumani
– 12,5 birlik.

o'rtacha
ko'rsatkich

Pop tumani
– 9,9 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

Uychi tumani
– 7,6 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **12,5** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **11,0** birlik, Chortoq tumanida **10,6** birlik, Chust tumanida **10,6** birlik, Namangan shahrida **10,4** birlik, Pop tumanida **9,9** birlik kuzatildi.

2023- yilning yanvar - iyun oylarida har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Mingbuloq
tumani
12,5

Uchqo'rg'on
tumani
11,0

Chortoq
tumani
10,6

Chust
tumani
10,6

Namangan
shahri
10,4

Pop
tumani
9,9

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

| 2022- yil yanvar - iyun | | 2023- yil yanvar - |
|----------------------------|---------------|-----------------------|
| 83 | Mingbuloq | 192 |
| 163 | Kosonsoy | 165 |
| 153 | Namangan | 101 |
| 198 | Norin | 138 |
| 133 | Pop | 186 |
| 173 | To'raqo'rg'on | 191 |
| 182 | Uychi | 162 |
| 254 | Uchqo'rg'on | 209 |
| 221 | Chortoq | 181 |
| 235 | Chust | 141 |
| 183 | Yangiqo'rg'on | 139 |
| 912 | Namangan sh. | 659 |

2023- yilning yanvar - iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

| | |
|---------------|------|
| Namangan sh. | 26,8 |
| Uchqo'rg'on | 8,5 |
| To'raqo'rg'on | 7,8 |
| Mingbuloq | 7,8 |
| Pop | 7,5 |
| Chortoq | 7,3 |
| Kosonsoy | 6,7 |
| Uychi | 6,6 |
| Chust | 5,7 |
| Yangiqo'rg'on | 5,6 |
| Norin | 5,6 |
| Namangan | 4,1 |


2023- yilning yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – **26,8 %**, Uchqo'rg'on tumani – **8,5 %**, To'raqo'rg'on va Mingbuloq tumanlari – **7,8 %**, Pop tumani – **7,5 %**, Chortoq tumani – **7,3 %**, Kosonsoy tumani – **6,7 %**, Uychi tumani – **6,6 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar - iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yanvar - iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar - iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **965** ta, sanoatda **508** ta hamda Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **273** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning shahar va tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida **659** ta, Uchqo'rg'on tumanida **209** tadan, Mingbuloq tumanida **192** ta, To'raqo'rg'on tumanida **191** ta, Pop tumanida **186** ta, Chortoq tumanida **181** ta, Kosonsoy tumanida **165** ta, Uychi tumanida **162** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023 yillarning yanvar - iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023 yillarning yanvar - iyun oylari davomida jami **15 393** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida- **5 892** (yoki **38,3 %**) ta, sanoat sohasida- **3 998** ta (yoki **26,0 %**), xizmatlar sohasida- **2 658** ta (yoki **17,3 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida- **1 857** ta (yoki **12,0 %**), qurilish sohasida- **988** ta (yoki **6,4 %**) tashkil etilgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da





2023- yilning yanvar - iyun oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **64,5 %**ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **0,2** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.



2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,5 %**ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida **96,4 %**ni, yo'lovchi aylanmasida **95,6 %**ni, yuk tashishda **94,1 %**ni, savdoda **94,0 %**ni, qurilishda **92,6 %**ni, yuk aylanmasida **91,9 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2023- yilning yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

| | |
|---------------|--------|
| Namangan sh. | 2162,0 |
| Uychi | 364,6 |
| Namangan | 361,3 |
| Chust | 258,4 |
| Chortoq | 243,7 |
| Kosonsoy | 226,7 |
| Pop | 189,5 |
| To'raqo'rg'on | 178,3 |
| Mingbuloq | 143,0 |
| Yangiqo'rg'on | 137,2 |
| Uchqo'rg'on | 101,4 |
| Norin | 87,0 |

2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 453,2** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**2162,0** mlrd. so'm), Uychi (**364,6** mlrd. so'm), Namangan (**361,3** mlrd. so'm), Chust (**258,4** mlrd. so'm), Chortoq (**243,7** mlrd. so'm) va Kosonsoy (**226,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Norin tumanida (**87,0** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da


| | |
|--------------|------|
| Namangan sh. | 48,5 |
| Uychi | 8,2 |
| Namangan | 8,1 |
| Chust | 5,8 |
| Chortoq | 5,5 |
| Kosonsoy | 5,1 |

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar - iyun oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yilning yanvar - iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **47,6 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiqo'rg'on hamda Chortoq tumanlari (**100,0 %**), Norin tumani (**85,0 %**), Pop tumani (**75,4 %**), Namangan tumani (**74,2 %**), Uychi tumani (**65,1 %**), Namangan shahri (**61,0 %**) tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %


2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2990,5** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,6** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar - iyun oylariga nisbatan **104,5** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**868,6** mlrd. so'm), Uychi (**328,5** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**246,8** mlrd. so'm), Namangan (**233,8** mlrd. so'm), Chortoq (**222,9** mlrd. so'm) hamda Kosonsoy (**218,0** mlrd. so'm) hamda tumanlarida qayd etildi.

2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **5 565,1** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **70,4 %** ini tashkil etdi. o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **113,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan shahri (**1932,9** mlrd. so'm), Chust (**740,5** mlrd. so'm), Namangan (**590,7** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**452,3** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**449,8** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**270,4** mlrd. so'm) hamda Kosonsoy (**259,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **10 618,0** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,4 %** ini tashkil etdi. o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **103,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Yangiqo'rg'on (**1127,5** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**1045,9** mlrd. so'm), Namangan (**1041,4** mlrd. so'm), Pop (**1033,2** mlrd. so'm), Chust (**983,0** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**962,2** mlrd. so'm) tumanlarida hamda Namangan shahrida (**951,7** mlrd. so'm) qayd etildi.

2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7 933,7** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **94,0 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **106,6 %** ni tashkil qildi.

2023- yillarning yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

| | |
|---------------|--------|
| Namangan sh. | 3009,8 |
| Chust | 691,8 |
| To'raqo'rg'on | 563,2 |
| Pop | 525,3 |
| Uychi | 522,3 |
| Yangiqo'rg'on | 442,6 |
| Norin | 398,8 |
| Chortoq | 394,2 |
| Namangan | 385,6 |
| Uchqo'rg'on | 377,5 |
| Kosonsoy | 364,9 |
| Mingbuloq | 257,7 |


2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**3 009,8** mlrd. so'm), Chust (**691,8** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**563,2** mlrd. so'm), Pop (**525,3** mlrd. so'm) va Uychi (**522,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023 yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 411,1 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,0 % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar - iyun oylariga nisbatan 107,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (1463,6 mlrd. so'm), Chust (446,2 mlrd. so'm), Uychi (438,6 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (397,5 mlrd. so'm), Pop (372,7 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (359,1 mlrd. so'm), Namangan (357,5 mlrd. so'm) va Chortoq (356,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da




2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSH dol.



Ulushi, %da




2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **116,5** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **44,1 %** ini tashkil etdi.


2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Norin, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0 %**, Pop tumanida – **94,4 %**, Mingbuloq tumaniida – **91,1 %**, Uychi tumanida – **56,6 %**, Namangan shahrida – **52,5 %**, va Namangan tumanida – **46,5 %**, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – **3,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2018-2023 yillarning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **262,6** million AQSH dollarini yoki jami importning **70,6** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarida – **100,0** %, Norin tumanida – **99,2** %, Pop tumanida – **93,8** %, Uychi tumanida – **88,0** %, Mingbuloq tumanida – **86,2** %, Namangan tumanida – **85,6** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023- yilning yanvar - iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,1 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %**ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2023- yilning yanvar - iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,9 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **104,0 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yilning yanvar - iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,5 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,8 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar - iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 220** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **463 (37,9 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **689 (56,5 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **68 (5,6%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **40,3 % (492 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,2 % (332 ta)**, sanoatda – **18,4 % (224 ta)**, qurilishda – **8,0 % (98 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,1 % (74 ta)**ni tashkil etdi.

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (428 ta), Pop (96 ta), Chortoq (91 ta), To'raqo'rg'on (82 ta), Chust (78 ta) hamda Namangan (75 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, **joriy davrda** iqtisodiy vaziyatni **qulay** deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **40,1 %** ni, savdoda – **38,2 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **37,8 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni **qoniqarli** deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **60,8 %**ni, sanoatda – **59,4 %** ni, qurilishda – **57,1 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni **qoniqarsiz** deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **8,2 %** ni, savdoda – **6,3 %** ni, xizmatlar sohasida – **5,1 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni **qulay** deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – **56,2 %** ni, qurilishda – **54,1 %** ni, xizmatlar sohasida – **53,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni **qoniqarli** deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **51,4 %** ni, savdoda – **47,8 %** ni, qurilishda – **44,9 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni **qoniqarsiz** deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **2,1 %** ni, savdoda va sanoatda – **1,8 %** ni, qurilishda – **1,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


| | o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|--|---|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 49,4 | 44,0 | 6,6 |
| Band bo'lganlar soni | 25,5 | 70,3 | 4,2 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 44,8 | 51,6 | 3,6 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 36,9 | 57,0 | 6,1 |
| Raqobat muhiti | 51,3 | 46,6 | 2,1 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|--|-------------------------------------|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 52,7 | 44,9 | 2,4 |
| Band bo'lganlar soni | 28,7 | 69,5 | 1,8 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 44,6 | 52,9 | 2,5 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 38,4 | 56,7 | 4,9 |
| Raqobat muhiti | 49,4 | 48,5 | 2,1 |


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli